

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo`l yozma huquqida*  
*UDK82-311.6(420)(575.1):82*

**HAMROYEVA SHARIFA SHUKUR QIZI**

**Valter Skott va Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy faktlarning  
berilishida muallif mahorati**

**5A120101 –Adabiyotshunoslik (ingliz)**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: f.f.n Sa`dullayeva N.A.**

**Buxoro-2017**

## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	2
<b>I BOB. TARIXIY ROMAN VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI</b> .....	6
1.1. Ingliz adabiyotida Romantisizm va tarixiy roman rivoji.....	6
1.2. O`zbek adabiyotida tarixiy roman va uning namoyandalari.....	15
<b>I bob</b> bo`yicha xulosa.....	22
<b>II BOB. V.SKOTT VA A.QODIRIY TARIXIY ROMAN ASOSCHILARI SIFATIDA</b> .....	24
2.1 Valter Skott ingliz adabiyoti tarixiy romanchiligi asoschisi.....	24
2.2. Abdulla Qodiriy o`zbek adabiyoti tarixiy romanchiligi yirik namoyandasi.....	35
<b>II bob</b> bo`yicha xulosa.....	45
<b>III BOB. TARIXIY HAQIQAT VA UNING INGLIZ HAMDA O`ZBEK TARIXIY ROMANLARIDAGI IFODASINING QIYOSIY TAHLILI</b> .....	47
3.1. Valter Skott va Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarida real fakt va badiiy to`qimalarning berilishi .....	47
3.2. V.Skott va A.Qodiriy tarixiy roman yozishdagi uslubiyati tahlili....	60
<b>III bob</b> bo`yicha xulosa.....	66
<b>Xulosa</b> .....	68
<b>Adabiyotlar ro`yxati</b> .....	72

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Ma'lumki, adabiyot bir millatning milliy ma'naviyatini ko'rsatadigan ko'zgudir. Badiiy adabiyotda esa ma'lum bir xalqning eng shonli zarvaraqlarini teran tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator yirik asarlar yaratilgan. Xalqlar tarixining turfa bosqichlarini tasvirlash, millatning ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan iste'dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish ingliz va o'zbek tarixiy romanlarining o'ziga xos xarakterini tashkil etadi.

Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlar, xususan, romanlar xalqimiz tarixining badiiy solnomasidir. Zero, Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, "Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash g'oyat muhim o'rin tutadi."<sup>1</sup>

Shuningdek, I. A. Karimov "O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"<sup>2</sup> degan fikrlari haqqoniy va xolis tarixni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ulug' mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan badiiy adabiyot namoyandalari tarixni va unda sodir bo'lgan voqealarni o'zlari yaratgan asarlari yordamida o'quvchilarga yetkazadilar. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur dissertatsiya ishining mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanib, unda ingliz adibi Valter Skott va o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarida real faktlarning berilishi va ularning yetkazilishida muallif mahorati qiyosiy tahlil etiladi.

Abdulla Qodiriy yangi davr o'zbek adabiyotining asoschilaridan bo'lib, o'zbek milliy romanchilik maktabining tamal toshini qo'ygan buyuk adibdir.

---

<sup>1</sup> Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997, 140-бет.

<sup>2</sup> Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. «Маърифат» 1998, 19 август.

A.Qodiriyning tarixiy romanlari 20-yillardagi yangi o`zbek adabiyoti oldida turgan murakkab g`oyaviy-badiiy muammolarning juda ko`pini yechib berib, adabiy taraqqiyotning tezlanishiga xizmat etdi. Bunga uning “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” asarlari misol bo`la oladi. Muallif o`sha zamon kishilari ahvoli, ruhiyati, orzu, intilishlari, quvonch va tashvishlarini zo`r mahorat bilan yorqin obrazlar orqali ko`rsatadi.

Fikrimizcha xorijiy tilni puxta o`zlashtirish, tili o`rganilayotgan mamlakat tarixi va buguni, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli, urf odati madaniyati va sa`atini o`rganishni taqozo etadi. Ana shunday omillardan biri bu adabiyotdir.

Xususan ingliz adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlarini o`rganar ekanmiz, bevosita, Buyuk Britaniya tarixi, rivojlanishining ma`lum bosqichlaridagi ijtimoiy voqelik va til holatlari haqida beqiyos axborot olishimiz mumkin. Anglo – Saksonlar Britaniya orollarini egallab olgandan boshlab to bugunga qadar bo`lgan adabiyotni biz ingliz adabiyoti deb ataymiz. Ma`lumki ingliz adabiyoti buyuk va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Unda biz ilk davr, o`rta asrlar, uyg`onish davri, ma`rifatchilik davri, romantizm kabi bir necha davrlarni kuzatishimiz mumkin.

Valter Skott esa shotlandiyalik mashhur tarixiy asarlar, drama va she`rlar muallifi. U ingliz adabiyotida tarixiy asarlarni yaratuvchisi hisoblanib, “Ayvengo”, “Uverli”, “Kventin Dorvard”, “Kenilvort” kabi romanlar muallifidir. Yozuvchining tarixiy romanlari Angliya, Fransiya va Shotlandiyaning tarixiga oid voqealarni to`qima qahramon sarguzashtlari va kechinmalari orqali ifodalaydi.

**Ilmiy tadqiqotning obyekt va predmeti.** Tadqiqotimizning obyekt sifatida V.Skott va A.Qodiriyning tarixiy romanlari tanlangan. Tarixiy romanlardagi real faktlarning berilishida muallifning yondashuvining qiyosiy tahlili esa uning predmetini tashkil etadi.

**Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishdan maqsad ingliz yozuvchisi Valter Skott va o`zbek adibi Abdulla Qodiriy tarixiy romanlari orqali o`tmishda sodir bo`lgan voqea-

hodisalarni xolisona va noreal ifodalanishida mualliflarning mahorati o`rganib, yoritib berishdir. Ilmiy tadqiqotimiz maqsadi esa oldimizga quyidagi vazifalarni qo`yishni taqozo etdi:

- ingliz adabiyotida Romantisizm davrini tavsiflash;
- ingliz va o`zbek adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanish bosqichlarini o`rganish va tahlil qilish;
- yozuvchi Valter Skottning ingliz adabiyoti tarixiy romanchiligiga qo`shgan hissasi o`rganish;
- o`zbek yozuvchilarining, xususan, Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari orqali o`tmish haqidagi berilgan fikr-mulohazalarni, faktlarni o`rganish;
- Valter Skott va Abdulla Qodiriyning tarixiy roman yozishdagi uslubiyati o`rganish;
- ingliz va o`zbek yozuvchilari ijodida tarixiy faktlarni qay tarzda taqdim etilishini o`rganish va ularning fikrlarini misollar yordamida qiyosiy, tarixiy-tahliliy usullar bilan ochib berish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Biz bilamizki, jahon adabiyotida tarixiy roman janri rivojida V.Skottning o`rni katta. Shu bilan birga, A.Qodiriy esa o`zbek adabiyotida roman janriga tamal toshini qo`ygan yozuvchi bo`lib, uning ijodiga qiziqish sabab ko`plab tadqiqotlarni olib borilgan. Bu ikki yozuvchining tarixiy romanlari uslubiy jihatdan tadqiq qilingan bo`lib, ularda ifodalangan real faktlarni o`rganish va tahlil qilishga doir ilmiy ishlar yetarli darajada olib borilmagan. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida ingliz va o`zbek yozuvchilarining ijodida, ayniqsa, romanchilikda tarixiy faktlarni mohirona berilishi mavzusi o`rganilib, tahlil qilinadi, taqqoslanadi va yozuvchilar fikrlaridan olingan misollar yordamida ochib beriladi. Bu esa magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi tashkil etadi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Mazkur tadqiqot ishimizda quyidagi masala va farazlarlar ilgari suriladi:

- ingliz va o`zbek adabiyotida tarixiy roman va uning rivojlanish bosqichlari;
- ingliz adibi V.Skottning hayoti, adabiy faoliyati va uning tarixiy romanchilikka qo`shgan hissasi;
- o`zbek adabiyoti namoyandasi A.Qodiriyning hayoti, adabiy faoliyati va uning tarixiy romanlari;
- V.Skottning tarixiy romanlarida o`tmishning ifodalanishi;
- “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” tarixiy romanlarida real faktlarning ifodalanishi;
- V.Skott va A.Qodiriy tarixiy roman yozishdagi uslubiyati tahlili.

**Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi.** O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilm-fan, ta`lim-tarbiya, chet tillarini o`rganishga doir asarlari va farmonlari, ingliz va o`zbek adabiyoti tanqidchilarining mavzuga doir asarlari, monografiya va maqolalari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning mavzusini yoritishda qiyosiy, tarixiy-tahliliy va tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu magistrlik tadqiqoti davomida qo`lga kiritilgan xulosalar amaliy jihatdan Adabiy Tanqid va Qiyosiy Adabiyotshunoslik fanlaridan ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarda manba sifatida qo`llash mumkin.

Nazariy jihatdan esa ushbu magistrlik ishi bakalavr talabalarining ilmiy maqola va tezislar, kurs ishi, malakaviy bitiruv ishini yozishda fundamental manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot tuzilmasining tavsifi.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, umumiy tavsif, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovadan iborat.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Fakultet** - Filologiya

**Magistratura talabasi:** Hamroyeva Sharifa

**Kafedra** – Ingliz tili va adabiyoti

**Ilmiy rahbar:** f.f.n. Sa`dullayeva N.A.

**O`quv yili** – 2015-2017

**Mutaxassisligi:** Adabiyotshunoslik (ingliz)

**“Valter Skott va Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy faktlarning berilishida muallif mahorati”** mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

**ANNOTATSIYASI**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Ma`lumki, adabiyot bir millatning milliy ma`naviyatini ko`rsatadigan ko`zgudir. Badiiy adabiyotda esa ma`lum bir xalqning eng shonli zarvaraqlarini teran tahlil qilishga bag`ishlangan bir qator yirik asarlar yaratilgan. Xalqlar tarixining turfa bosqichlarini tasvirlash, millatning ijtimoiy va ma`naviy hayotida muhim rol o`ynagan iste`dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rnini ko`rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish ingliz va o`zbek tarixiy romanlarining o`ziga xos xarakterini tashkil etadi.

Badiiy adabiyot namoyandalari tarixni va unda sodir bo`lgan voqealarni o`zlari yaratgan asarlari yordamida o`quvchilarga yetkazadilar. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur dissertatsiya ishining mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanib, unda ingliz adibi Valter Skott va o`zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarida real faktlarning berilishi va ularning yetkazilishida muallif mahorati qiyosiy tahlil etiladi.

**Ilmiy tadqiqotning obyekt va predmeti.** Tadqiqotimizning obyekt sifatida V.Skott va A.Qodiriyning tarixiy romanlari tanlangan. Tarixiy

romanlardagi real faktlarning berilishida muallifning yondashuvining qiyosiy tahlili esa uning predmetini tashkil etadi.

**Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishdan maqsad ingliz yozuvchisi Valter Skott va o`zbek adibi Abdulla Qodiriy tarixiy romanlari orqali o`tmishda sodir bo`lgan voqea-hodisalarni xolisona va noreal ifodalanishida mualliflarning mahorati o`rganib, yoritib berishdir. Ilmiy tadqiqotimiz maqsadi esa oldimizga quyidagi vazifalarni qo`yishni taqozo etdi:

- ingliz adabiyotida Romantisizm davrini tavsiflash;
- ingliz va o`zbek adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanish bosqichlarini o`rganish va tahlil qilish;
- yozuvchi Valter Skottning ingliz adabiyoti tarixiy romanchiligiga qo`shgan hissasi o`rganish;
- o`zbek yozuvchilarining, xususan, Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari orqali o`tmish haqidagi berilgan fikr-mulohazalarni, faktlarni o`rganish;
- Valter Skott va Abdulla Qodiriyning tarixiy roman yozishdagi uslubiyati o`rganish;
- ingliz va o`zbek yozuvchilari ijodida tarixiy faktlarni qay tarzda taqdim etilishini o`rganish va ularning fikrlarini misollar yordamida qiyosiy, tarixiy-tahliliy usullar bilan ochib berish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Biz bilamizki, jahon adabiyotida tarixiy roman janri rivojida V.Skottning o`rni katta. Shu bilan birga, A.Qodiriy esa o`zbek adabiyotida roman janriga tamal toshini qo`ygan yozuvchi bo`lib, uning ijodiga qiziqish sabab ko`plab tadqiqotlarni olib borilgan. Bu ikki yozuvchining tarixiy romanlari uslubiy jihatdan tadqiq qilingan bo`lib, ularda ifodalangan real faktlarni o`rganish va tahlil qilishga doir ilmiy ishlar yetarli darajada olib borilmagan. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida ingliz va o`zbek yozuvchilarining ijodida, ayniqsa, romanchilikda tarixiy faktlarni mohirona berilishi mavzusi o`rganilib, tahlil qilinadi, taqqoslanadi va yozuvchilar



fikrlaridan olingan misollar yordamida ochib beriladi. Bu esa magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi tashkil etadi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilm-fan, ta'lim-tarbiya, chet tillarini o'rganishga doir asarlari va farmonlari, ingliz va o'zbek adabiyoti tanqidchilarining mavzuga doir asarlari, monografiya va maqolalari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning mavzusini yoritishda qiyosiy, tarixiy-tahliliy va tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu magistrlik tadqiqoti davomida qo'lga kiritilgan xulosalar amaliy jihatdan Adabiy Tanqid va Qiyosiy Adabiyotshunoslik fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda manba sifatida qo'llash mumkin.

Nazariy jihatdan esa ushbu magistrlik ishi bakalavr talabalarining ilmiy maqola va tezislar, kurs ishi, malakaviy bitiruv ishini yozishda fundamental manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot tuzilmasining tavsifi.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, umumiy tavsif, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari.** Mazkur tadqiqot ishi magistrlik dissertatsiyasi sifatida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida birlamchi himoyadan o'tib, asosiy himoyaga tavsiya etildi. U asosida ilmiy maqolalar to'plamlarida 3ta maqola berilgan.

**Xulosa va takliflarning umumlashtirilgan ifodasi.** Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima hamda uning ingliz hamda o'zbek tarixiy romanlaridagi ifodasini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, bu ikki adibning faoliyatida buning mohirona ifodasini kuzatishimiz mumkin. Xususan, ingliz yozuvchisi V.Skott o'zining tarixiy romanlarida tarixiy voqeani asosiy qahramon sifatida oladi va asar voqealari shu tarixiy fakt asosida markazlashadi. To'qima qahramonlar

sarguzashlari esa tasvirlanayotgan tarixiy davr manzarasini kitobxonga gavalantirishda yordam beradi.

A.Qodiriy esa o`zining tarixiy romanlarini yozishda Qo`qon, Marg`ilon xonligi tarixiga oid manbalarni o`rganib, tarixiy joylarni borib o`rgangan bilimlari asosida yozgan. Adib har bir voqea-hodisalarini ishonarli qilib yoritilishiga katta ahamiyat bergan. “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” tarixiy romanlarida garchi to`qima syujetlar mavjud bo`lsada, yozuvchi xon davri tarixini haqiqatga yaqin tarzda tasvirlashga uringan.

Ilmiy rahbar

\_\_\_\_\_ f.f.n. Sa`dullayeva N.A.  
(imzo)

Magistratura talabasi

\_\_\_\_\_ Hamroyeva Sh.Sh.  
(imzo)

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED  
EDUCATION

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**Faculty** – Philology

**Master’s student** – Hamroeva Sh.Sh.

**Department** – English philology

**Scientific supervisor** – Sa’dullayeva N.A.

**Academic year** – 2015-2017

**Speciality** – Literature (English)

Annotation of the master’s dissertation for the master’s degree on the theme

**“The artistic skill of author in the description of historical facts in the novels of Walter Scott and Abdulla Kadiri”**

**The actuality of the theme of research.** тирт

**The object and subject of the research.** The historical novels of W. Scott and A. Kadiri (Ivanhoe, Quentin Durward, Kenilworth, Days gone by, Scorpion in the pulpit) are chosen as the object of MR while its subject comparing the authors’ approach to the expression of historical truth in the mentioned works.

**The aims and tasks of the research.** The aim of the work is to study the expression of the historical events happened in the past with the help of mentioned novels and to analyze authors’ approach to give facts according to historical accuracy comparatively. This aim puts the following tasks before us:

- To study and analyze the development of historical novels in the English and Uzbek literature;
- To investigate the contribution of W. Scott to the historical prose of the English literature;
- To study the views of Uzbek writers, especially, A. Kadiri’s about the past through historical novels;
- To study the similarities and difference of expressing historical facts in the works of English and Uzbek writers and clarify their thoughts using examples:

- To analyze the style of authors in writing historical novels in comparison.

**The scientific novelty of the research.** It is obviously seen that in the development of historical novel W. Scott plays an important role in the world literature. Simultaneously, A. Kadiri is a writer who has laid the ground for a literary genre, novel and many researches have been carried out on his works. The two authors' historical novels are studied in a methodological basis separately and few researches are conducted on the comparative analysis and investigation of expressing real facts in their novels.

In this regard, this master's dissertation reveals comparison of the mastery of the writers in delivering historical facts and writing style which asserts its novelty.

**The methodological basis and methods of research.** The works of the first President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov on science, education and learning foreign languages, the laws of the Republic of Uzbekistan "On education" and "On preparation of personnel" and the works of such authors as Oybek, Mirvaliyev S, Habibullo Kadiri, G'ayrat Murod, Matthew J. Phillpott, Georg Lukács, Jerome de Groot have served as the methodological basis of the work.

In this research method of comparative analysis, historical-analytic analyses have been applied.

**The theoretical and practical value of the research.** The practical use of the dissertation is that it can serve as lecture or seminar classes in such subjects as Literary Criticism and Comparative Literature. Its theoretical importance is that students in the following years can use it in their qualification works or course works and writing scientific article and thesis.

**The content of the research.** The dissertation consists of introduction, three chapters, six paragraphs, conclusion and the list of used literature.

**The main results of the research.** The following research paper passed the preliminary defense and was recommended to the main defense. Three

articles in the scientific manuals were given according to the theme of the dissertation.

**Generalization of conclusion and advice.** Analyzing the artistic skill of describing historical truth and fictitious events in the historical novels of Walter Scott and Abdulla Kadiri, it obviously seen the mastery of authors in the expression of them. For instance, W.Scott described historical moment in which an important crisis caused personal problems in individuals or group of individuals and usually his characters were men seeking peace and tranquility, most of which were fictional but some were real ones.

While reading Scott's novels we understand that he makes us live in the past, he captured the spirit of an age, without going deeply into the causes of the historical events. Relatively, A.Kadiri writes his historical novels on the basis of knowledge about history of Kokand, Margilon gained from historical sources. Although there are some fictitious episodes in his novels, the author tried to portray the historical period of Khans.

Although, these two writers belong to different literatures, they are connected to the one point which is historical novel genre. Several similarities and differences can be observed in the writing style of the authors', as A.Kadiri was impressed by the works of W.Scott.

Scientific supervisor \_\_\_\_\_ f.f.n. Sa'dullayeva N.A.

Student of master's degree \_\_\_\_\_ Hamroyeva Sh.Sh

